

LOGOPEDIYA-NUTQ TARAQQIYOTI
Logopediya fanining nazariy va amaliy asoslari

Muallif: Jumaniyozova Durdona Azadbay qizi

Ish joyi: *Xorazm viloyati Hazorasp tumani 4-sonli Davlat Maktabgacha ta'lim tashkiloti(logoped)*

**MAQOLA
MALUMOTI**

MAQOLA TARIXI:

Received:07.06.2026

Revised: 08.06.2026

Accepted:09.06.2026

KALIT SO'ZLAR:

*logopediya, nutq
buzilishi, korreksion
pedagogika, diagnostika,
inklyuziv ta'lim,
metodika*

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada logopediya fanining nazariy asoslari, rivojlanish bosqichlari va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Maqsad — nutq buzilishlari bilan ishlovchi logoped mutaxassislar faoliyatining ilmiy va metodik asoslarini yoritishdir. Tadqiqotda taqqoslash, kuzatish va tahlil metodlaridan foydalanilgan. Maqola davomida logopedik muammolarning zamonaviy yechimlari, pedagogik yondashuvlar hamda inklyuziv ta'limdagi roli ochib berilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, logopediya sohasi nafaqat tuzatish, balki oldini olish va sotsial moslashuvda ham muhim o'rin egallaydi. Xulosa sifatida logopedik xizmatlar sifatini oshirishda tizimli yondashuv va kasbiy malaka muhim omillar ekanligi ta'kidlanadi..

Kirish

Logopediya – bu insonning nutqiy rivojlanishidagi buzilishlarni aniqlash, ularni oldini olish va tuzatish bilan shug'ullanuvchi muhim ilmiy-amaliy sohadir. Insoniyat taraqqiyoti jarayonida nutq har doim asosiy ijtimoiy aloqa vositasi sifatida xizmat qilib kelgan. Shu bois, bolalar va kattalarda uchraydigan nutq buzilishlarini vaqtida aniqlash va to'g'irlash nafaqat ta'lim tizimi, balki jamiyatning sog'lom ijtimoiy muhitini ta'minlashda ham muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasida maxsus pedagogika, xususan, logopediya sohasiga davlat tomonidan e'tibor tobora ortib bormoqda. Ta'limda inklyuzivlik tamoyillarining keng joriy qilinishi, logopedik xizmatlar tarmog'ining rivojlanishi ushbu yo'nalishda yangi ilmiy izlanishlar olib borish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Mazkur maqola orqali logopediya fanining nazariy asoslari, rivojlanish bosqichlari, diagnostika va korreksiya usullari hamda zamonaviy yondashuvlar haqida ilmiy tahlil yuritiladi.

Logopediya fanining markazida turadigan asosiy masala – bu nutq buzilishlaridir. Nutq buzilishlari tug‘ma yoki orttirilgan bo‘lishi mumkin. Ular fonetik, fonematik, leksik-grammatik, semantik va kommunikativ jihatlariga ta’sir etadi. Nutq buzilishlari quyidagilarga bo‘linadi:

- Dislaliya – tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish;
- Disartriya – nutq a’zolarining harakat buzilishi tufayli yuzaga keladigan buzilish;
- Alaliya – bolaning to‘liq yoki qisman nutqsizligi;
- Afaziya – oldin mavjud bo‘lgan nutqning yo‘qolishi yoki buzilishi;
- Rinolaliya – burun orqali chiqadigan tovushlarning buzilishi;

Logopedik tashxis va diagnostika

Logopedik diagnostika – bu bemorning nutq holatini aniqlash, nutq buzilishi turini, darajasini va sabablarini aniqlashga qaratilgan muhim jarayondir. Diagnostik ishlar psixologik, nevrologik va lingvistik yondashuvlar bilan uyg‘un holda amalga oshiriladi. Maxsus testlar, suhbatlar, yozma va og‘zaki topshiriqlar orqali bolaning nutqiy rivojlanishi baholanadi.

Bunda logoped quyidagilarga e’tibor qaratadi:

- Artikulyatsiya apparatining holati;
- Eshitish va fonematik sezgi darajasi;
- Lug‘aviy zahira va grammatik tuzilma;
- Og‘zaki va yozma nutqdagi moslik va farqlar.

Nutq buzilishlarini tuzatish metodlari

Nutq buzilishlarini bartaraf etish uchun logopedik mashg‘ulotlar tizimli, bosqichma-bosqich va metodik yondashuv asosida olib boriladi. Mashg‘ulotlar davomida artikulyatsion mashqlar, fonematik eshituvni rivojlantirish, lug‘at boyligini kengaytirish, grammatik ko‘nikmalarni shakllantirish va dialogik nutqni rivojlantirish usullari qo‘llaniladi. Bundan tashqari, logopedik o‘yinlar, rasmlar asosida hikoya tuzish, interaktiv vositalardan foydalanish kabi metodlar ham qo‘llaniladi. Har bir bolaga individual dastur asosida yondashuv qo‘llanilishi natijadorlikni oshiradi.

Nutq buzilishlari turlari va ularning korreksiyasi
Nutq buzilishlari — bu nutq faoliyatining fonetik, fonematik, leksik, grammatik va kommunikativ jihatdan me’yordan chetga chiqishi bilan tavsiflanadigan holatdir. Bunday buzilishlar bolalarning ijtimoiy moslashuvi, ta’lim olish jarayoni va emotsional rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Logopediya ushbu buzilishlarni o‘rganish, tashxislash va korreksiyalash bilan shug‘ullanadi.

Har bir nutq buzilishi turiga mos logopedik mashg‘ulotlar mavjud:

- Dislaliya uchun artikulyatsion mashqlar, fonematik eshitishni rivojlantirish ishlari;
- Disartriya uchun logomassaj, nafas mashqlari, tovush differensiasiyasi mashg‘ulotlari;
- Alaliya uchun vizual va eshitish stimullari asosida so‘z boyligini oshirish;

- Afaziya holatida multimodal yondashuvlar (vizual, kinestetik va verbal vositalar bilan);
- Rinolaliya uchun burun bo'shlig'ini tibbiy davolash bilan birgalikda nutq terapiyasi;

Logopedik diagnostika bosqichlari:

Logopedik tashxis qo'yish – nutq buzilishining aniq turini, darajasini, sabablarini aniqlash va tegishli tuzatish choralarini belgilash uchun zarur jarayondir. Bu bosqichlar izchillik bilan olib borilishi lozim.

Kuzatuv va dastlabki suhbat:

Logoped bola bilan ilk muloqotni o'rnatadi, uning psixologik holati, ijtimoiy muhitga moslashuv darajasi, nutq faolligini baholaydi.

Diagnostik testlar va mashqlar:

Maxsus sinovlar orqali tovushlarni talaffuz qilish, leksik va grammatik ko'nikmalar, fonematik eshitish, nutqning ritmik va melodik tomonlari tekshiriladi.

Analitik baholash:

To'plangan ma'lumotlar tahlil qilinadi. Bola nutqidagi nuqsonlar turi, darajasi va sabablari aniqlanadi. Zarurat bo'lsa, psixolog, nevrolog yoki LOR mutaxassislar bilan hamkorlik qilinadi.

Diagnostik xulosa va tavsiyalar:

Logoped bolaga individual yondashuv asosida tuzatish mashg'ulotlari rejasini ishlab chiqadi va ota-onalar uchun metodik tavsiyalar beradi.

Logopedik korreksion mashg'ulotlarning turlari

Logopedik mashg'ulotlar bolaning nutqiy kamchiliklarini tuzatish, yangi nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish va ijtimoiy moslashuv darajasini oshirishga qaratilgan. Ushbu mashg'ulotlar turli metodika va vositalardan foydalangan holda olib boriladi va bolaning yoshiga, nutq buzilishining xususiyatlariga qarab farqlanadi.

Individual mashg'ulotlar:

Bu turdagi mashg'ulotlar logoped va bola o'rtasida yuzma-yuz olib boriladi. Asosan og'ir va kompleks nutq buzilishlariga ega bolalar bilan ishlashda qo'llaniladi. Har bir mashg'ulot bolaning individual rivojlanish darajasiga mos ravishda tuzilgan reja asosida o'tkaziladi.

Guruhli mashg'ulotlar:

Guruhli mashg'ulotlar bir xil nutqiy muammoga ega bo'lgan bolalar bilan olib boriladi. Bu usul bolalarning o'zaro muloqoti va ijtimoiylashuvi uchun foydalidir. O'yin, hikoya tuzish, rolli sahnalar asosida tashkil etiladi.

Nutqni tuzatishdan oldin bolani mashg'ulotlarga tayyorlash maqsadida o'tkaziladi. Bu bosqichda bola bilan kontakt o'rnatish, motivatsiyani shakllantirish va psixologik tayyorgarlik muhim rol o'ynaydi.

Artikulyatsion gimnastika:

Tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish uchun og'iz, til, lab va jag' mushaklarini mustahkamlovchi mashqlar bajariladi. Har bir tovush uchun maxsus artikulyatsion

harakatlar mavjud.

Og‘zaki nutqni rivojlantirish mashg‘ulotlari:

So‘z boyligini oshirish, to‘g‘ri gap tuzish, grammatik shakllarni qo‘llashni o‘rgatishga qaratilgan mashqlar bajariladi. Hikoya tuzish, rasm asosida gapirish, savol-javob shaklida olib boriladi.

Asosiy qism: Logopedik mashg‘ulotlarning har bir turi o‘z maqsadi va metodikasiga ega. Ularni kompleks qo‘llash orqali bolalarda nutq faoliyatini tiklashda yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Logopedik ishda faqat mutaxassisning harakati yetarli emas. Bola nutqining rivojlanishida oila a‘zolari va atrof-muhit bilan uzviy hamkorlik alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun uy sharoitidagi mashg‘ulotlar va ota-onaning emotsional qo‘llab-quvvatlashi tuzatish jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi. Logoped ota-onalar bilan doimiy ravishda suhbatlar o‘tkazadi, maslahatlar beradi, uy sharoitida bajarilishi kerak bo‘lgan topshiriqlarni tavsiya qiladi. Shu tariqa logopedik mashg‘ulotlarning samaradorligi oshadi. Oila a‘zolari bolaning yutuqlari va qiyinchiliklarini kuzatib borishi, mashqlarda faol ishtirok etishi lozim.

Maktabgacha ta‘lim muassasasida logoped tarbiyachi va pedagoglar bilan hamkorlikda ishlaydi. Dars jarayonida nutqiy faoliyatni rag‘batlantirish, tovushlar ustida ishlash, nutqiy topshiriqlarni mustahkamlashda pedagoglar muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, logoped ularni metodik tavsiyalar bilan ta‘minlaydi.

Bola yashaydigan va o‘qiydigan muhitda kommunikativ qulaylik, emotsional iqlim, bag‘rikenglik muhiti mavjud bo‘lishi zarur. Logoped bu borada psixolog, ijtimoiy pedagog, shuningdek, bolalar bilan ishlovchi boshqa mutaxassislar bilan tizimli hamkorlikda bo‘lishi lozim.

Shunday qilib, logopedning samarali faoliyati ko‘p tomonlama hamkorlikka asoslanadi. Bu hamkorlik bola uchun qulay rivojlanish muhitini yaratish va uning nutqiy salohiyatini to‘liq ochib berishga xizmat qiladi. Zamon rivojlanar ekan ekologik muommolar soni ham ortib boraveradi va kelajak avlodlarga albatta o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qolmaydi. Ayniqsa bundan 4-5 yil oldin butun dunyoni titratgan koronavirus vabosi insonlar hayotida juda sezilarli darajada iz qoldirdi. Oldingi yildagi statistikalarga qaraganda koronavirusdan keying yillarda nuqsonli bolalar soni tobora ortib bormoqda bu esa bolalarning faqatgina aqliy rivojlanishiga ta‘sir etib qolmasdan, nutq nuqsonlarining kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda. Bundan tashqari zamonaviy texnologik gadjetlar bolalarni o‘z qamroviga qurshab olmoqda. Albatta bu holatning sababchisi ota-onalardir. Ba‘zi ta-onalarning farzand tarbiyasiga be‘etiborligi sababli, bolalar gadjetlardan e‘tibor topayotganligi bor vaqtini ularga sarflayotganligi sababli atrofdagi rivojlanishlardan orta qolmoqda natijada tashxisli bolalar soni ortib bormoqda. Bu mamlakatimizni bolalarning ta‘lim tarbiyasiga bo‘lgan qarashlarini yanada oshishiga, maktab va bog‘chalarda inklyuziv guruhlarni tashkil qilish, rivojlanishdan orqada qolgan bolalarga keng imkoniyatlar yaratish, ularga ko‘roq e‘tibor

berish ,ta'lim tarbiyasi bilan shug'ullanish chora tadbirlarini ishlab chiqishga olib kelmoqda. Shu sababli pedagog logopedlar o'z malakalarini doimiy ravishda oshirishlari ,o'z ustida ko'proq ish olib borishlari o'rinlidir.

Zamonaviy logopediya sohasida texnologik yutuqlar va innovatsion metodikalar keng qo'llanilmoqda. Bu uslublar nafaqat mashg'ulotlarni qiziqarli va interaktiv shaklda tashkil etishga, balki diagnostika va korreksiya samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Logopedik faoliyatda interaktiv dasturlar, mobil ilovalar, nutq sintezatorlari, logopedik trenajyorlar qo'llanilmoqda. Masalan, "Logobit", "Zabalki", "Govorushka" kabi dasturlar bolalarning tovush talaffuzi, leksik zaxira va grammatika ko'nikmalarini rivojlantirishda qo'llaniladi.

Rasmi slaydlar, animatsiyalar, audio-vizual materiallar orqali nutqiy faollikni rag'batlantirish mumkin. Bunday vositalar bolalarning qiziqishini oshiradi va o'zlashtirish darajasini ko'taradi. Ayniqsa, eshitish orqali qabul qilish imkoniyati past bo'lgan bolalar uchun muhim hisoblanadi.

Ba'zi rivojlangan mamlakatlarda logopedik darslar onlayn platformalarda olib borilmoqda. Masofaviy mashg'ulotlar zamonaviy real vaqtda aloqa vositalari orqali o'tkazilib, ayniqsa geografik chekka hududlarda yashovchi bolalar uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Neuro-logopedik yondashuvlar, sensor integratsiya mashg'ulotlari, logoritmika, musiqiy terapiya, LEGO-texnologiyalar asosidagi mashg'ulotlar logopediya amaliyotida innovatsion vositalar sifatida keng joriy etilmoqda.

Demak, texnologik taraqqiyot logopediya sohasida ham tub o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Innovatsion yondashuvlar nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki bolalarda nutqqa nisbatan ijobiy munosabat shakllanishiga ham xizmat qiladi.

Logopediya sohasi dunyo miqyosida turli darajada rivojlangan. Har bir mamlakatda bu yo'nalishning rivojlanishiga ta'lim tizimi, sog'liqni saqlash siyosati va ijtimoiy yondashuvlar katta ta'sir ko'rsatadi. Xorijiy mamlakatlar tajribasi O'zbekistondagi logopedik xizmatni yanada takomillashtirishda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

AQSH, Germaniya, Rossiya, Yaponiya, Kanada kabi rivojlangan davlatlarda logopediya mustaqil ilmiy-amaliy soha sifatida shakllangan. Bu mamlakatlarda logopedlar psixologik, nevrologik va pedagogik bilimlarga ega bo'lishi shart. Diagnostika jarayonida zamonaviy test tizimlari, maxsus laboratoriyalar va tibbiy jihozlar qo'llaniladi.

Masalan, AQSHda "speech-language pathologist" (nutq va til patologiyasi bo'yicha mutaxassis) kasbi keng tarqalgan bo'lib, logopedik xizmatlar maktabgacha ta'lim muassasalari, maktablar va hatto shifoxonalarda ham keng joriy etilgan.

O'zbekistonda logopediya sohasining rivojlanishi asosan sovet logopediya maktabiga asoslangan. Mustaqillikdan so'ng logopedik xizmatlar milliy o'ziga xosliklar bilan uyg'unlashtirildi. Ayni paytda logopedlar maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maxsus maktablar va psixologik-pedagogik markazlarda faoliyat yuritmoqda. Mamlakatimizda

logopediya fani pedagogika yo'nalishi tarkibida rivojlanmoqda. Oliy o'quv yurtlarida logopedlar tayyorlanmoqda, logopedik adabiyotlar chop etilmoqda, yangi metodikalar joriy etilmoqda.

Xorijiy tajriba bilan qiyoslaganda, O'zbekistonda logopedik xizmatlar hali to'laqonli tizimlashtirilmagan. Biroq, so'nggi yillarda davlat tomonidan maxsus ehtiyojli bolalarga e'tiborning ortishi, inklyuziv ta'lim konsepsiyasining joriy etilishi bu sohaning yuksalishiga zamin yaratmoqda.

O'zbekistonda xorijiy tajribani o'rganib, uni mahalliy ehtiyojlar asosida moslashtirish logopediya amaliyotini zamon talablari darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi.

Xulosa

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida xulosa qilish mumkinki, logopediya fani zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas tarkibiy qismidir. U nafaqat nutq nuqsonlarini bartaraf etishga, balki shaxsning ijtimoiy moslashuvi, kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish va psixologik barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Logopedik amaliyotda har bir bola yoki shaxsga individual yondashuv muhim o'rin tutadi. Bunda zamonaviy texnologiyalar, xorijiy ilg'or tajribalar, milliy metodik yondashuvlar va fanlararo integratsiya muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasida logopediya sohasining bosqichma-bosqich rivojlanayotgani va bu boradagi davlat siyosatining izchil amalga oshirilayotgani istiqbolda natijadorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Shu bois, logopediya sohasi bo'yicha ilmiy izlanishlar, malakali kadrlar tayyorlash, amaliy faoliyatda samaradorlikni ta'minlash va zamonaviy innovatsiyalarni joriy etish — ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Levina R.E. 'Logopediya asoslari', Moskva, 2000.
2. Vygotskiy L.S. 'Psixologik va pedagogik izlanishlar', Moskva, 1991.
3. M.N. Shaxovskaya. 'Nutq buzilishlarining tashxisi va korreksiyasi', Sankt-Peterburg, 2005.
4. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi me'yoriy hujjatlari, 2018–2024 yillar.
5. Raxmatova S.T. 'Logopediya fanidan amaliy mashg'ulotlar', Toshkent, 2020.
6. Internet manbalari: www.ziyonet.uz, www.lex.uz, www.ncpi.uz